

**MAKTAB DARSFIGIDA TALMEH SAN ' ATINING O'RGANILISHIGA DOIR  
MATERIALLAR TAHLILI**

*O'zbekiston – Finlandiya pedagogika  
instituti Filologiya fakulteti O'zbek  
tili va adabiyoti yo'nalishi 201-guruh  
talabasi*

**Keldiboyeva Shaxnoza Sherpulat qizi**

**Annatsiya:** *Adabiyot san ' at turi sifatida insonga ta 'sir ko'rsatadi . Bu ta 'sir go'zallik vositasida amalga oshadi . Mazkur go'zallik esa badiiy adabiyotda so'z orqali namoyon bo'ladi . Biz badiiy adabiyot namunasi bilan tanishib o'zimiz uchun shu paytgacha bilgan yoki his etgan narsalarimizdan boshqacharoq bir holatga duch kelamiz , yangilikka duch kelamiz . U oldindan ma 'lum bo'lmagani uchun bizda ichki bir qiziqish , ajablanish , hayratni uyg'otadi .*

**Kalit so'zlar:** *She'riy san 'at , talmeh , she 'riyat , badiiy san 'atlar , tahlil , badiiy tahlil , mahorat , tarixiy shaxs .*

Har bir ijodkor o'z mahoratini san 'atning qaysidir jabhasida namoyon etadi . Shoirlar she 'rlarida insonlar ruhiyatiga ta 'sir etish uchun turli she 'riy san 'atlardan foydalanadi . Bular badiiy asarlarning ijodkori bo'lgan adib va shoirlarning mahorati tufayli sodir bo'ladi . Ularning bir qismi bevosita she 'riy san 'atlar bilan bog'liq . Quyida ularning ayrim namunalari bilan tanishamiz . She'riyatda tashbeh , istiora , tazod , tajohil ul – orif , husni ta'lil , tajnis , tadid va talmehdir . Bu she 'riy san 'atlar haqida darsliklarda ham ma 'lumotlar berilgan . Keling ularni tahlil qilib ko'ramiz . Ulardan biri talmeh san 'atidir . Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosi «chaqmoq chaqilishi», «bir nazar tashlash» demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir. Xorazmiyda shunday misralar mavjud:

Sulaymon saltanatlik podshosen ,  
Masih anfoslik , Yusufliqosen .

Ushbu baytda uchta shaxs nomi: Sulaymon, Masih va Yusuf tilga olingan. Ularning uchalasi haqida ham faqat o'zbeklarda emas, turli xalqlarda juda ko'plab afsona, rivoyat, qo'shiq, hatto dostonlar yaratilgan. Ular bilan bog'liq rivoyatlar «Qur'on» da ham qayd etiladi. Ma'lumki, Sulaymon – Dovud payg'ambarning o'g'li edi, u o'n to'qqiz aka-ukalar orasida eng donishmandi bo'lgan. Shu tufayli u barcha yer yuzidagi odamlarnigina emas, qurt-u qumursqaga, qushlarga, hatto «ins-u jinslar»ga ham hukmronlik qilgan. «Sulaymon saltanatlik podshosen» misralari ana shu afsonaviy shaxs qudratini mo'jaz shaklda eslash orqali badiiy tasvir qahramonini tavsiflashga xizmat qilmoqda. Masih ham payg'ambarlar silsilasidan o'rin olgan. Unga xos xislatlardan biri o'likni tiriltira olish qudratidir. Masih

anfoslilik – Masih nafasiga ega bo'lishlik demakdir. Yusuf esa go'zallik ramziga aylangan obraz. U Ya'qub payg'ambarning o'g'li. «Yusuf va Zulayho» dostonidagi bosh qahramon, ko'plab shoirlar e'tiborini tortgan:

Solib borma meni, ey Yusufi husn,  
Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda.

(Atoyi)

Bu yerdagi talmeh «Yusuf va Zulayxo» turkumidagi dostonlardan xabardor bo'lishni taqazo etadi. Ma'lumki, Yusuf Ya'qub payg'ambarning sevimli farzandi bo'lgan. Ammo taqdir ayni mana shu farzandidan muayyan muddat ayrilib yashashini ravo ko'radi. Natijada ota g'am uyi (bayt ul-hazan) da yashashga majbur bo'ladi. Yusuf o'zining tashqi ko'rinishi – go'zalligi bilan ham boshqalardan ajralib turar edi. Demak, lirik qahramonning o'z mahbusasiga «Yusufi husn» deb murojaat etishi bejiz emas ekan.

Rivoyatga ko'ra, Ya'qub payg'ambarning o'n bir o'g'li bo'lib, kenja o'g'li husnda tengsiz Yusufni jonidan ortiq suyar, bir dam bo'lsa ham oldidan jildirgisi kelmas ekan. Otasining Yusufni o'zlaridan ortiq ko'rayotganiga hasad qilgan o'gay akalari uni o'ynatib kelamiz deb dashtga olib chiqishadi va uni o'ldirish maqsadida quduqqa tashlab yuboradilar. Ukalarining yechib olingan ko'ylagini qonga botirib, otalariga: “Yusufni bo'ri yeb ketdi”, — deb ko'rsatadilar. Ya'qub alayhissalom o'g'li qaytib kelguncha necha yillar davomida ayriliq tufayli kecha-yu kunduz qon yig'laydi. Demak, shoir: “Ey yor, o'zingni yiroq qilib, meni ayriliqda qiynamagin”, — degan fikrni ifodalash uchun Ya'qub va Yusuf alayhissalom haqidagi rivoyatga ishora qilmoqda. She'riyatda tarixiy voqea va shaxslar, adabiy qahramonlarga ishora qilish talmeh (arabcha “nazar”) san'ati deb yuritiladi.

Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz

Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

(Lutfiy) Lutfiy ham ushbu baytida talmeh san'atiga murojaat qilganini ko'rishimiz mumkin. Lirik qahramon yori ishqida yig'layverib, ko'zdan qolganini aytish uchun shu talmehdan foydalanadi.

Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay

Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.

(Ogahiy)

Bu baytda mubolag'a o'zining haddi a'losiga – eng yuqori chegarasiga ko'tarilgan. Farhod – ishq yo'lida cheksiz zahmatlar chekkan, g'am-alamlar tortgan, musibatlariga yo'liqqan obraz. Mana shu jafokashligi bilan u mashhur. O'z ko'rgiliklarini chamalar ekan, oshiq mening boshimga tushgan aziyatlar oldida Farhod tortgan azoblar hech narsa emas deydi. Afsonaviy Besutun tog'idan mingtasini gardun (dunyo) Farhodning ustiga yog'dirsa ham, oshiqning boshiga yog'gan g'am toshining mingdan biricha bo'lolmaydi. Ogahiy „Ustina” g'azalida og'ir musibatlarni Besutun toshidan ham og'ir deb aytadi.

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma'zur tut,

Yor ko'yida na bo'ldi Shayx San'on oqibat?

Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,

Poymoli xayli mo'r o'ldi Sulaymon oqibat.

(Nodira)

Fors-tojik shoiri Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» hamda uning ta'sirida Alisher Navoiy bitgan «Lison ut-tayr» dostonlarida tarso (xristian) qizga ishqiq tasvirlangan Shayx San'on shuningdek, Sulaymon payg'ambar tilga olinishida o'quvchiga oldindan tanish qahramonlar va ular bilan bog'liq voqealarga ishora mavjud.

Maktab darsliklarida badiiy san'at turlarining berilishidan maqsad shuki, o'quvchilarning yod olgan yoki o'qigan she'riy parchalarning nima uchun bunday ta'sirli va ifodali yozilganligining sababini anglashga, o'zlari mustaqil tahlil qilishlariga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Adabiyot 8 - sinf darslik-majmua /S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 192 b. 2 . Adabiyot 9- sinfi uchun darslik. / Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. [Mas'ul muharrir: V.Rahmonov]. Qayta ishlangan 4-nashri. —T.: «O'zbekiston» NMIU, 2019. — 368 b. 3 . Adabiyot 10-sinf darslik-majmua / B. To'xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.